



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

— Kenjaboyeva Nigora Mamayusufovna¹ —

¹Surxondaryo viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasи katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +99891 978 94 93 El. manzil: nkenzaboeva@gmail.com

TALABALARING REPRODUKTIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning reproduktiv madaniyatini tarbiyalash borasidagi davlat siyosati, talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishning amaliyotdagi ahvoli, talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari, talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirish jarayonini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: talaba-yoshlar, reproduktiv, reproduktiv madaniyat, oliy ta'lim, talabalik, sog'lom turmush tarzi.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ РЕПРОДУКТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

В данной статье даны сведения о государственной политике по воспитанию репродуктивной культуры, о практическом состоянии развития



репродуктивной культуры учащейся молодёжи, научно – педагогических условиях развития репродуктивной культуры у учащейся молодёжи, организации процесса развития репродуктивной культуры учащейся молодёжи и методике его проведения.

Ключевые слова и понятия: учащаяся молодёжь, репродуктивная культура, высшее образование, обучение, здоровый образ жизни.

INNOVATIVE APPROACH TO DEVELOPMENT OF REPRODUCTIVE CULTURE OF STUDENTS

This article addresses issues scientific analysis of state policy on the education of the reproductive culture of youth, the practical state of the development of the reproductive culture of students, scientific and pedagogical conditions for the development of the reproductive culture of students, information about the organization and conduct of the development of the reproductive culture of students.

Key words and concepts: students, reproductive, reproductive culture, higher education, healthy lifestyle.

Kirish. Jahonda yoshlarning reproduktiv madaniyatini shakllantirishning tibbiy-biologik, ijtimoiy-demografik, pedagogik-psixologik mazmuni, shakl va metodlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSh Xalqaro rivojlanish agentligi (USAID), Qohira Xalqaro anjumani (ARXA)¹, YuNISEF, UNFPA kabi xalqaro tashkilotlarning faoliyat yo‘nalishlari reproduktiv madaniyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan. Talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishda reproduktiv

¹ Ўзбекистон Республикасида хотин-қизларнинг аҳволи тўғрисидаги маъруза. Муаллифлар гурӯҳи: Ғуломова Д., Сайдова Г., Қобулова Д., Норбоева Т ва бошқалар. UNOPS лойиҳаси асосида нашр қилинган. - Т.: 1999. - 96 б.



salomatlik, demografik mo‘tadillik, gender yondashuv asosida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda, oilada, uzlusiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, bolalar va o‘smirlar reproduktiv salomatligi samaradorligini mustahkamlash, jamoatchilikning tibbiy-pedagogik madaniyatini oshirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini keng targ‘ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biri” deya mazkur sohadagi ishlarning dolzarbliji xususida to‘xtalib o‘tgan².

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagи “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” PF-4947-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-son qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Maqsad. Talabalarning sog‘lom turmush tarzi bu – bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirishning asosidir. Talaba-yoshlarning sog‘lom turmush tarzi birinchi navbatda xususiy sog‘lom turmush tarziga asoslangan ya’ni sog‘lijni saqlash sohasida shaxsiy bilimlarga ega bo‘lish,

² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.



sog‘lom turmush tarziga intilish va insonni o‘zi kundalik faoliyatida o‘z sog‘ligini asrashga intilishidir³.

Biz mazkur yunalishlarning mazmun doirasini yoritar ekanmiz, unda milliy qadriyatlар, an'analar, xususan, oliv ta'lim imkoniyatlariga asosiy e'tiborni qaratdik. Ushbu muammo yuzasidan faylasuf olimlar tomonidan yoshlarda reproduktiv madaniyatni takomillashtirishning mazmun va mohiyatini izohladik.

O.Musurmonova yoshlarni hayotga tayyorlash masalalari xususida so‘z yuritar ekan, asosiy e'tibor yoshlarning reproduktiv savodxonlik darajasiga qaratiladi deb hisoblaydi, hamda mazkur yo‘nalishda, ya’ni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik aspektlari, farzand ko‘rish va tarbiyalash madaniyati, «er-xotin», «ona-bola» munosabatlari va muloqotlari tizimi, bu jarayonda milliy, umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish haqida fikr bildirgan.

D.Sharipova o‘z ilmiy izlanishlarida mazkur yo‘nalishga ham alohida e’tibor berib, shaxsiy gigiyena asoslarini mensimaydigan, normal mehnat qilish, dam olish, uqlash rejimiga amal qilmaydigan, badan terisi tozaligiga, kiyim boshga, chiniqtiruvchi jismoniy tadbirlarga ahamiyat bermaydigan, zararli odatlarga ruju qo‘ygan kishining salomatligini saqlab bo‘lmasligini, ta’kidlab o‘tadi.

D.Holiqovning ilmiy izlanishlarida jinsiy tarbiya, o‘zbek oilalarida jinsiy tarbiyani amalga oshirishning etnopedagogik xususiyatlari tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. D.Holiqov “Jinsiy tarbiyagina oilani, odamzodni saqlab qola oladi” deya o‘z fikrlarini izohlaydi.

S.Tursunovning ilmiy izlanishlarida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida «sog‘lomlashtirish maktabi» pedagogik tizimi orqali ta’limga valeologik yondashuvni rivojlantirish, sog‘lom avlodni kamol toptirish hamda sog‘lomlikni ta’minlovchi pedagogik tizimning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatları, tamoyillari va uning rivojlanish darajasini baholash mezonlarini aniqlagan⁴.

³ Шарипова Д.Д. и др. Методическое пособие для учителей по урокам здоровья. ЮНИСЕФ. 2006. - 256 с

⁴ Кенжабоева Н.М. Талаба ёшларда репородуктив маданиятни шакллантириш. Методик қўлланма. –Т.: Мумтоз сўз, 2011. –120 б.



Talabalik – bu o‘ziga xos mutaxassislik guruhi bo‘lib, doimo bir ritmda mehnat qilishi, aqliy mehnat turi bilan intensiv shug‘ullanishi bilan hammadan farq qiladi. Shuningdek, oliv ta’lim jarayoniga moslashish, imtihonlar davridagi katta yuklanish va hissiy zo‘riqish, turli psixologik va fiziologik stresslar ularning asab va yurak tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa talaba-yoshlar o‘rtasidagi turli asab, yurak qon tomir kasalliklarining kelib chiqishiga, stresslardan xoli bo‘lish maqsadida zararli odatlarga berilishiga olib keladi.

Talaba-yoshlarning sog‘lom turmush tarziga yana quyidagi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi ya’ni: yurish-turish, o‘z sog‘ligiga munosabati, sog‘ligini saqlash va mustahkamlashi, tibbiy yordamga o‘z vaqtida murojaat qilishi va tibbiy ko‘riklarga ongli yondashuvi, profilaktik tadbirlarni o‘tkazib turilishi kabilardir.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, talaba-yoshlarning sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar oxirgi yillarda yanada ko‘proq dolzarblikni aks ettirmoqda. Chunki, talaba-yoshlarning sog‘ligini taxlil qilish va statistik ma’lumotlarga ko‘ra talabalarda sog‘lik madaniyatining asta-sekin pasayishi kuzatilmogda. Bunga sabab sog‘liqni saqlash, sog‘lom turmush tarziga oid bilim va unga munosib dunyoqarashga ega bo‘lmaslikdir⁵.

Talaba-yoshlarning sog‘ligi oliv o‘quv yurtida o‘qib yurgan kezlarida yaxshilanmaydi aksincha yomonlashuvi ko‘zga tashlanar ekan. Masalan, B.G.Akchurin⁶ ikkinchi kursgacha bo‘lgan talaba-yoshlar o‘rtasida kasallanish 23% ni tashkil etsa, to‘rtinchi kursgacha bo‘lgan talabalarda bu ko‘rsatkich 43% ga oshishini isbotlagan.

Respublikamizda mutaqillikning dastlabki yillardanoq yoshlardagi sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, reproduktiv salomatligini mustahkamlash, yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va OITS ga qarshi kurashish muammolariga bo‘lgan e’tibor rivojiana bordi. Shuningdek, mazkur sohalarda yoshlarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish

⁵ Шарипов А.Д., Шарипова Д., Таирова М. Концептуальные основы формирования ЗОЖ учащихся. Образования через всю жизнь. Санкт-Петербург.: 2007. - 160 с.

⁶ Акчурин Б.Г. Духовная и телесная организация человека. – Уфа: Изд-во “Башкир”, ун-та, 2001. -257 с



maqsadida oliy ta’limning barcha bosqichlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maxsus dasturlar orqali o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi.

Talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga oid o‘quv uslubiy majmualar bu sohadagi zaruriy va bilim, ko‘nikmalarini egallahda asosiy vosita hisoblanadi.

Shu bois, bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kundalik hayotda turli ijtimoiy muammolarni hal etish, sog‘lom turmush tarzi borasida to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun ularga yordam beradigan bir qator uslubiy qo‘llanmalar, dasturlar yaratilgan. Jumladan, O.To‘rayevaning “Oila etikasi va psixologiyasi” (1991), O.Musurmonovaning “Oila ma’naviyati – milliy g‘urur” (1999), G’.Shoumarovning “1001 savolga psixologning 1001 javobi” (2000), “Oila psixologiyasi” (2000), M.Inomovaning “Oilada bolalarning ma’naviy ahloqiy tarbiyasi” (1999), D.Sharipova va V.A.Tokarevaning “Chekmasdan yoshlik gashtini sur”, D.Sharipovaning “Salomatlik – barchaning va har bir kishining ishi”, “Millat sog‘ligi o‘z qo‘limizda” va boshqa shu kabi adabiyotlar ta’lim muassasalari pedagog-psixologlari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ota-onalar uchun ham qimmatli ma’lumotlar manbaigina bo‘lib qolmasdan, o‘quv tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi⁷. Lekin, adabiyotlar mazmunida aynan reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’lumotlarning yetarlicha yoritilmaganligi, xususan yosh davrlari sifatida talabalik davri xususiyatlaridan kelib chiqib reproduktiv salomatlik va reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga e’tiborning yetarli emasligi ko‘zga tashlanadi.

Mazkur yo‘nalishda nafaqat talaba-yoshlarga, balkim, ota-onalarga ham manba bo‘luvchi, o‘quv uslubiy qo‘llanmalarini yaratish har bir pedagog-psixolog olimlar oldiga dolzarb vazifalarni qo‘yadi deya o‘z munosabatlarini bildirishgan⁸.

Bizning kuzatish va tahlillarimiz jarayonida oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasidan o‘rin olgan tibbiy-biologik, pedagogik-psixologik fanlardan “Yosh

⁷ Кенжабоева Н.М. Ёшларга соғлом оила қуриш маданияти ҳақида. Рисола. – Т.: Шарқ, 2009. – 40 б.

⁸ Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. (Ўқув қўлланма). - Т.: Ўқитувчи, 1999. - 200 б



fiziologiyasi va gigiyenasi”, “Valeologiya asoslari”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila psixologiyasi”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Oila pedagogikasi” kabi kasbiy va mutaxassislik fanlarining o‘quv dasturlari bilan ham yaqindan tanishib chiqdik.

Umumkasbiy fanlar blokidan o‘rin olgan “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fani uchun jami 42 soat ajratilgan bo‘lib, uning 20 soatni ma’ruza, 22 soatni laboratoriya mashg‘ulotlari tashkil etadi. Bu fan 1-bosqich davomida o‘qilib, ular talaba-yoshlarni organizmning fiziologik o‘sishi va gigiyenik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklari bilan yaqindan tanishtirishga mo‘ljallangan. Ammo, fan uchun ishlab chiqilgan o‘quv, ishchi dasturlarini tahlil etganimizda, reproduktiv madaniyatini rivojlantirish yo‘nalishdagi mavzular ko‘zga tashlanmadı.

Talaba-yoshlarga sog‘lom turmush tarzi va uning tarkibiy qismlari haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi “Valeologiya asoslari” fanini o‘rganishga talabalarda qiziqish kuchli. Bakalavriat yo‘nalishining barcha mutaxassisliklarida “Valeologiya asoslari” fani 2-bosqichda jami 30 soatli o‘quv yuklamasi (14 soat ma’ruza, 16 soat seminar) asosida o‘qitiladi. Fan dasturi bilan tanishganimizda uning tarkibidan inson salomatligi, sog‘lom turmush tarzini va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlari haqida ma’lumot beruvchi qator mavzular o‘rin olganligiga guvoh bo‘ldik. Ammo reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzular faqat “Reproduktiv salomatlik va kasallik” (4 soat: 2 soat ma’ruza, 2 soat seminar) mavzusi bilan cheklanganligining guvohi bo‘ldik.

Shuningdek umumkasbiy fanlar sifatida o‘qitiladigan “Yosh davrlari psixologiyasi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Ijtimoiy psixologiya” fanlarining mazmunida talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirish muammosi aniq mavzular sifatida to‘liq aks etmagan⁹

Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy, psixologik, fiziologik jihatlari va yoshlarda reproduktiv madaniyatini rivojlantirish shart-sharoitlari xususida “Oila psixologiyasi” o‘quv bosqichida beriladigan ma’lumotlar bizni ancha qoniqtirdi, ammo mazkur fanni mutaxassislik fani pedagogika psixologiya mutaxassisligi

⁹ Кенжабоева Н.М. Талаба ёшларда репородуктив маданиятни шакллантириш. Методик қўлланма. –Т.: Мумтоз сўз, 2011. –120 б.



sifatida o‘qitilishi e’tiborga olinsa, bu axborotlarning tarqalishi tor doirada ekanligi ma’lum bo‘ladi.

D.K.Najmutdinova talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishning amaliyotdagi ahvolini o‘rganish bu sohada quyidagi kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi¹⁰.

Ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan qulay muhit va pedagogik shart-sharoitning yo‘qligi.

1. Talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatining nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha axborotlar, bilim va ko‘nikmalar tizimining yetarli emasligi.

2. Oliy ta’lim muassasasidagi tibbiy-biologik, pedagogik-psixologik fanlarni o‘qitish mazmunida reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzularning yetarlicha yoritilmaganligi.

3. Talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan auditoriyadan tashqari tadbirlar ko‘lamining torligi.

4. Aynan talabalik davridagi yoshlar uchun reproduktiv salomatlik, sog‘lom turmush tarzi va reproduktiv madaniyat borasida ma’lumotlar beruvchi metodik bankning yetishmasligi.

5. Oliy ta’lim muassasasidagi pedagoglar jamoasi tomonidan talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirish jarayonining to‘la nazoratga olinmasligi.

Biz yuqorida keltirilgan kamchiliklar yuzasidan pedagogik-psixologik manbalarni o‘rgandik, adabiyotlarni tahlil etdik, “Valeologiya asoslari”, “Yosh fiziologiyasi va gigiyena” fanlarining o‘quv dasturlari mazmunini o‘rgandik, mazkur fanlardan mashg‘ulotlar kuzatdik va talabalarning ushbu muammosi bo‘yicha mavjud bilim va ko‘nikmalari treninglar, suhbat hamda so‘rovnomalar asosida monitoring qilindi.

Mazkur bosqichda sog‘lom turmush tarzi va reproduktiv madaniyatni takomillashtirish inson hayotida nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini

¹⁰ Нажмутдинова Д.К., Хасанова Д.А. Репродуктив соғлиқни сақлаш омиллари. Ўқув қўлланма. -Т.: 2001. - 216 б.



inobatga olib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bu boradagi fikrmulohazalarini va bilimdonlik darajasini aniqlash maqsadida ularga anketa-so‘rovnomalari tavsiya etildi.

So‘rovnoma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat universiteti va Jizzax pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti (boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti yo‘nalishi) birinchi va to‘rtinchi bosqich talabalaridan 362 nafar respondent jalg‘ib etildi. Anketa so‘rovnomasiga 30 ta savoldan iborat bo‘lib, unda sog‘lom turmush tarzi, jinsiy tarbiya, nikoh va oilaviy hayotga tayyorlanish, farzand ko‘rish va uni tarbiyalash yo‘nalishlari bo‘yicha so‘rovlar aks etgan.

So‘rovnoma tarkibidan joy olgan dastlabki “Sog‘lom turmush tarzi” tushunchasini qanday izohlaysiz? Degan savolga ishtirokchilarning 37 foiz “Sog‘lom turmush tarzi bu – yaxshi yashash, dam olish, sog‘lom bo‘lish” deya javob bergen bo‘lsa, 23,4 foiz talabalar, mazkur tushunchani sog‘lom bo‘lish, zararli odatlarga berilmaslik (ichish, chekish) deya izohlashdi, 21 foiz ishtirokchilarda sog‘lom turmush tarzi – sport bilan doimiy shug‘ullanish, 10 foiz talabalar uchun kun tartibiga rioya etish, ba’zilarida (9 foiz) oilaning tinch-totuv bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

“Siz doimo o‘z sog‘ligingiz haqida qayg‘urasizmi?” degan savolga 22,5 foiz talaba “yo‘q”, 16 foiz - “har doim ham emas”, 17,5 foiz - “ba’zida” va 44 foiz ishtirokchi “ha” deya javob berishdi.

“Reproduktiv madaniyat deganda nimani tushunasiz?” degan savolga respondentlar tomonidan berilgan javoblar bizni qoniqtirmadi. Chunki, so‘rovnomada ishtirok etayotgan birinchi bosqich talabalarining 80 foiz, uchinchi bosqich talabalarining 73,4 foizi reproduktiv madaniyat tushunchasining mazmunini to‘g‘ri izohlay olmadi.

“Sizningcha ota-onaning salomatligi farzandlariga ta’sir ko‘rsatadimi?” degan savolga respondentlarning 90foiz ha, deya javob berishdi, ammo “Sog‘lom farzand ko‘rish uchun kim ko‘proq mas’ul; ayolmi yoki erkak?” degan murojatimizga talabalarining 37 foiz ayol kishi mas’ul (asosan yigitlarning



javoblarida), 38,4 foiz har ikkalasi, 24,5 foiz erkaklar mas’ul deya javob qaytarishgan.

Keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, reproduktiv madaniyat borasidagi bilimlarning o‘zlashtirilishi yigitlarga nisbatan qizlarda yuqoriroq ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda, oilaviy hayot va jinsiy munosabatlarda ayollarning yetakchilik qilayotganligi tabiiy hol. Ammo o‘zbek oilasida oilaviy munosabatlar, oilani rejalashtirish, farzand ko‘rish borasidagi hal qiluvchi qarorlar erkaklar tomonidan qabul qilinishi e’tiborga olinsa, yigitlarning reproduktiv madaniyat va sog‘lom turmush tarzi xususidagi bilimlardan to‘laqonli xabardor emasligi muammoli holatdir.

Olingen ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, talaba-yoshlar sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv madaniyat borasida yetarlicha tasavvurga ega emaslar. Bizning fikrimizcha, keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish, moddiy-texnik sharoitni mustahkamlash asosida o‘z sog‘ligiga e’tiborli, ma’suliyatli shaxsni tarbiyalash;
- hududiy va milliy-ijtimoiy olimlarning talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirish jarayoniga ta’sirini hisobga olish;
- reproduktiv madaniyatining shakllanishda nafaqat yoshlarning, balki otanonalar va o‘qituvchilarining ham bu sohadagi savodxonligi muhim ahamiyat kasbetishini nazarda tutish;
- reproduktiv madaniyatini rivojlantirishning zaruriy shart-sharoitlari, mazmun-mohiyati haqida ma’lumot beruvchi uslubiy qo’llanmalar va broshyuralarni yaratish;
- umumkasbiy fanlar blokidagi tibbiy-biologik va pedagogik-psixologik fanlarning mazmunida reproduktiv salomatlik va sog‘lom turmush madaniyatini masalalarini keng yoritish;



- talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishning mavjud tizimini qayta rivojlantirish va amalga oshirish.

Xulosa

Yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlab borish, ularda oila-nikoh munosabatlariga hurmat, reproduktiv madaniyatni takomillashtirish bugungi kunda hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan. Chunki, yoshlarda sog‘lom turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligini ta’minlashga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirmsdan turib, ma’naviy barkamol shaxsni, malakali mutaxassisni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Biz olib borgan tajriba ishlari davomida muammoning mazkur jihatiga e’tibor qaratdik va bugungi kunda - talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishda quyidagi xulosalarga keldik.

1. Talaba-yoshlarning reproduktiv madaniyatni takomillashtirishda talaba-yoshlarning ta’limi va tarbiyasiga oid huquqiy me’yoriy hujjatlar mazmun – mohiyati, pedagogika, psixologiya sohalarida olg‘a surilgan ilmiy-nazariy g‘oyalar metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirish yuzasidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari, maxsus kurslar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirishning pedagogik jarayonini loyihalashtirish, algoritmlash, axborot-kommunikativ texnologiyalar, interfaol metodlardan samarali foydalanish ularda reproduktiv madaniyat bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni tarbiyalashdagi imkoniyatlari aniqlandi.

4. Ta’lim jarayoni va auditoriyadan tashqari olib boriladigan mashg‘ulotlar mazmunida sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv madaniyat, jinsiy tarbiya masalalarining kengroq (nomutaxassislik yo‘nalishlarida ham) yoritilishi va bunda



o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning noan’anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish orqali amalga oshirish muhim rol o‘ynaydi.

Agar yoshlar o‘zining sog‘ligini, sifatli bilim olishini, rivojlanib o‘sishini, ularning sog‘ligiga zarar keltiruvchi zararli odatlardan holi, ma’naviy o‘sishini himoya qila olmas ekan, u shaxs salomatligini muhofaza qila olmaydi.

Vaholanki, ta’lim tizimi shaxs salomatligini mastahkamlovchi va shakllantiruvchi muhim bo‘g‘inlardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilim va harakatlari aynan shu maqsad uchun yo‘naltirilishi, avvalo, ularni shu sohada zaruriy bilim, amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish lozimligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Ўзбекистон Республикасида хотин-қизларнинг аҳволи тўғрисидаги маъруза. Муаллифлар групхи: Ғуломова Д., Сайдова Г., Қобулова Д., Норбоева Т ва бошқалр. UNOPS лойиҳаси асосида нашр қилинган. - Т.: 1999. - 96 б. Акчурин Б.Г. Духовная и телесная организация человека. – Уфа: Издво “Башкир”, ун-та, 2001. -257 с
3. Кенжабоева Н.М. Ёшларга соғлом оила қуриш маданияти ҳақида. Рисола. – Т.: Шарқ, 2009. – 40 б.
4. Кенжабоева Н.М. Талаба ёшларда репородуктив маданиятни шакллантириш. Методик қўлланма. –Т.: Мумтоз сўз, 2011. –120 б.
5. Шарипов А.Д., Шарипова Д., Таирова М. Концептуальные основы формирования ЗОЖ учащихся. Образования через всю жизнь. Санкт-Петербург.: 2007. - 160 с.
6. Шарипова Д.Д. и др. Методическое пособие для учителей по урокам здоровья. ЮНИСЕФ. 2006. - 256 с.
7. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. (Ўкув қўлланма). - Т.: Ўқитувчи, 1999. - 200 б.



8. Нажмутдинова Д.К., Хасанова Д.А. Репродуктив соғлиқни сақлаш омыллари. Ўқув қўлланма. -Т.: 2001. - 216 б.